

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh. Xodjayeva
29-avgust 2025 yil

MUTAXASSISLIK FANLARNI O‘QITISH METODIKASI
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta’lim

Ta’lim sohasi: 110000 – Ta’lim

Magistratura 70110102 – Pedagogika
mutaxassisligi:

Fan/mavzu kodi MFO‘M1105		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 1	Kreditlar 5		
Fan/mavzu turi Majburiy		Ta‘lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4		
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlar i (soat)	Mustaqil ta‘lim (soat)	Kurs ishi	Jami yuklam a (soat)	
	Mutaxassislik fanlarni o‘qitish metodikasi	60	60	30	150	
2.	I. Fanning mazmuni. Magistratura yo‘nalishida tahsil oluvchi oliy ta‘lim tizimida faoliyat olib boruvchi o‘qituvchilarni mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasiga doir nazariy bilimlar bilan qurollantirishda mazkur fan alohida ahamiyatga ega. Ushbu dastur oliy ta‘limda Mutaxassislik fanlarni o‘qitish metodikasi qonuniyatlari, tamoyillari, o‘qitish metodikasiga doir zamonaviy konttseptsiyalar, ta‘limning an‘anaviy va innovatsion metodlari, Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda ta‘limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllari, pedagogik texnologiyalar hususidagi bilimlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Magistrantlarni oliy ta‘lim tizimida faoliyat olib borishga tayyorlashda mazkur fan muhim ahamiyatga ega. Fanning maqsadi – bo‘lajak oliy ta‘lim o‘qituvchilarini mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasiga doir bilimlar bilan qurollantirish. Fanning vazifalari – fanning ilmiy-nazariy asoslari, kasbiy bilimlar, amaliy ko‘nikmalarini egallash, Mutaxassislik fanlari va ularning o‘ziga xosliklarini o‘rganish, tahlil qilish hamda pedagogik faoliyat samaradorligini baholash, o‘qitish qonuniyatlari va tamoyillarini o‘rganish, o‘qitish mazmunini belgilab beruvchi me‘yoriy hujjatlar, mutaxassislik fanlarini o‘qitish metod va vositalaridan foydalanish shart-sharoitlari haqida malakaga ega bo‘lish orqali o‘qitish jarayonida talabalarning bilim, konikma va malakalarini baholashning reyting tizimi haqidagi ma‘lumotlarni yoritib berishdan iborat. Fanning asosiy manbalari: 1. N.Erkaboyeva. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. Farg‘ona. 2023. 2. O‘.Q.Tolipov, D.I.Ro‘ziyeva, Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. (barcha magistratura mutaxassisliklari uchun o‘quv qo‘llanma). –T.: 2019y. Mutaxassislik fanlarni o‘qitish metodikasi fani o‘quv dasturi Peking universitetining Mutaxassislik fanlarni o‘qitish metodlari o‘quv dasturi (QS reytingida 14-o‘rin), asosida tuzilgan. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg‘unligi – Peking universitetining Mutaxassislik fanlarni o‘qitish metodikasi fani o‘quv dasturi ta‘lim jarayonida Mutaxassislik fanlarni o‘qitish metodikasi fani o‘qituvchini, ta‘lim jarayonining vakolatli tashkilotchisini tayyorlash modelini belgilaydi, nafaqat innovatsion maktab tizimiga qo‘shilish, balki uni yanada takomillashtirishning nostandart muammolarini mustaqil ravishda hal qilish va o‘zini o‘zi belgilash va bolaning o‘zini o‘zi anglaydigan,					

o'zini o'zi anglaydigan shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishining individual traektoriyasini ta'minlashga qaratilgan

Xalqaro standartlarga muvofiqlik – fanni o'zlashtirish natijasida zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilarga qo'yilayotgan talablarni egallashiga erishiladi. O'quv jarayonini tashkil etish - barcha turdagi o'quv mashg'ulotlari, tadqiqot loyihalarida talabalar va stajyorlarga mentorlik va nazorat qilish, ilmiy-ommabop taqdimotlar, Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi bevosita aloqa jarayonida talabadan diqqatni jalb qilish va xotirada saqlanib qolish usullarini egallashni talab qiladi. Bunday jarayonga muvaffaqiyatli tayyorgarlik ko'rishning kaliti - maqsadni belgilash, tarkibni (materialni) to'g'ri tanlashni o'tkazish, har xil turdagi vazifalarni ishlab chiqish, o'qituvchi uchun ham, talabalarning o'zlari uchun ham fikr-mulohazalarga ega bo'lishiga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – Talabalar fanni o'rganish jarayonida kundalik hayotda uchraydigan real situatsiyalarni mustaqil tahlil qilishi va ularning yechimlari borasida o'z fikrlarini bayon qilishga o'rganadi.

II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).

II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

I – MODUL. Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi fanining nazariy asoslari

1-mavzu. Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi fanining maqsadi va vazifalari.

Mutaxassislik fanlar turkumi va ularning vazifalari. Pedagogikaning mutaxassislik fanlari tizimida tutgan o'rni. Pedagogik turkum fanlarni o'qitishga innovatsion yondashuvlar. Asosiy pedagogik tushunchalar.

2-mavzu. Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida.

Pedagogik jarayon, o'quv jarayoni, tizimli yondashuv tushunchalarining tahlili. Mutaxassislik fanlarni o'qitishga tizimli yondashuv. Mutaxassislik fanlarni o'qitishda pedagog shaxsi va uning metodik kompetentligi.

3-mavzu. Mutaxassislik fanlarni o'qitish qonuniyatlari va tamoyillari.

Mutaxassislik fanlarni o'qitishning tashqi va ichki qonuniyatlari. Tashqi qonuniyatlar - o'qitish natijalarining ijtimoiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va natijaviylikka yo'naltirilganligi. O'quv jarayoni tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik. Mutaxassislik fanlarni o'qitishning didaktik tamoyillari: ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi, tizimlilik, ishonchlilik, faollik, ko'rgazmalilik, individuallik

4-mavzu. Mutaxassislik fanlarning o'quv - me'yoriy xujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash metodikasi.

O'quv-me'yoriy hujjatlar, o'quv-uslubiy majmualar, o'quv adabiyotlarni yaratishga qo'yiladigan talablar. O'qituvchining shaxsiy ish rejalar, kalendar-tematik rejalar. Guruh va professor-o'qituvchining jurnallarini yuritish tartibi.

5-mavzu. Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmuni.

Ta'lim mazmuni va o'qitish mazmuni. O'qitish mazmunini belgilash tamoyillari. o'qitish maqsadi va mazmunining birligi. O'qitish mazmunining o'zlashtirish darajasini ta'minlay olishi. O'qitish ob'ekti, o'zlashtirish ob'ekti va o'qitish natijasi.

6-mavzu. Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar.

Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar: DTS, o'quv reja va o'quv dasturlari.

7-Mavzu. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metod va vositalari.

Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodlari: an'anaviy va innovatsion turkum o'qitish vositalari: grafikli organayzerlar, o'qitishning texnik vositalari, tarqatmalar.

8-mavzu. Mutaxassislik fanlarni o'qitish shakllarining umumiy tavsifi.

O'qitish shakllari. O'qitishning jamoaviy, guruhviy va individual shakli. O'qitishning masofaviy shakllari. Mutaxassislik fanlarni o'qitish shakllari: ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya, mustaqil ta'lim.

II – MODUL. Mutaxassislik fanlarni o'qitishda amaliy jarayon.

9-mavzu. Ma'ruza turlari va ularga qo'yiladigan talablar

Ma'ruza va uni tashkil etishga qo'yiladigan didaktik talablar. Ma'ruza turlari: muammoli, kirish, axborotli, vizual, binar, sharhlovchi, ma'ruza-munozara, input-ma'ruza, on-line ma'ruzalar va ularni tashkil etish, o'tkazish metodikasi

10-mavzu. Seminar mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyasi.

Seminar va uni tashkil etishga qo'yiladigan didaktik talablar. Seminar turlari: muammoli, kirish, axborotli, vizual, binar, sharhlovchi, ma'ruza-munozara, input-ma'ruza, on-line ma'ruzalar va ularni tashkil etish, o'tkazish metodikasi. Seminar-treninglar, intensiv-interfaol seminarlar, amaliy ishlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi.

11-mavzu. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyasi.

Amaliy mashg'ulotlar va uni tashkil etishga qo'yiladigan didaktik talablar. Amaliy mashg'ulot topshiriqlarini tayyorlash. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalaridan foydalanish.

12-mavzu. Mustaqil ta'lim va laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi.

Mustaqil ta'lim va laboratoriya mashg'ulotlarning mazmuni va maqsadi. Mustaqil ta'lim va laboratoriya mashg'ulotlarning turlari, virtual laboratoriyalar. Mustaqil ta'lim va laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi.

13-mavzu. Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning reyting tizimi.

Reyting tizimi haqida tushuncha. Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonida talabalar bilim, konikma va malakalar tizimini baholashning o'ziga xosligi. Nazorat shakllari va turlari.

14-mavzu. Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Axborot texnologiyalari tushunchasi. Mutaxassislik fanlarni o'qitishda axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Taqdimot, elektron darslik yaratish texnologiyasi. Masofadan o'qitishni tashkil etish.

15-mavzu. Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. Pedagogik texnologiya turlari: shaxsga yonaltirilgan ta'lim texnologiyalari. Hamkorlik pedagogikasi. Muammoli, interfaol, o'yinli, tabaqalashtirilgan, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiya etish metodikasi.

III. Amaliy mashg'ulotlar buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Mutaxassislik fanlarini o'qitishning ularning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayoni.
3. Mutaxassislik fanlarni o'qitish qonuniyatlari
4. Mutaxassislik fanlarni o'qitish tamoyillari.
5. Mutaxassislik fan o'qituvchisining o'quv - me'yoriy xujjatlari va metodik ishlari.
6. Mutaxassislik fanlarini o'qitishni rejalashtirish, tashkil etish.
7. Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmuni.
8. Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlarni tayyorlashga qoyilgan talablar.
9. Mutaxassislik fanlarini o'qitishning zamonaviy metod va vositalari.
10. Mutaxassislik fanlarni o'qitish shakllarining umumiy tavsifi.
11. Ma'ruza turlari va ma'ruza mashgulotlarini o'tkazishga qo'yilgan talablar.
12. Seminar mashg'ulotlarni o'tkazishda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish texnologiyasi.
13. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish texnologiyasi.
14. Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning reyting tizimi.

15. Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalarda nazariy o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi hamda ularda egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalari hosil qilinadi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;

- dokladlar tayyorlash;

- kurs ishi yozish;

- konspekt yozish;

- glossariy tuzish;

- individual va guruhiiy o'quv loyihasi;

- keys-topshiriqlarini bajarish;

- mavzuli portfoliolar tuzish;

- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;

- manbaalar bilan ishlash;

- infografika tuzish;

- chizma-tasviriiy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;

- multimediali taqdimotlar yaratish;

- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;

- darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;

ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1.Mutaxassislik fanlar turkumi va ularning vazifalari.

2.Pedagogik turkum fanlarni o'qitishga innovatsion yondashuvlar.

3.Pedagogik jarayon, o'quv jarayoni, tizimli yondashuv tushunchalarining tahlili.

4.Oliy ta'limda Mutaxassislik fanlarni o'qitishga tizimli yondashuv.

5.Maxsu fanlarni o'qitishda pedagog shaxsi va uning metodik kompetentligi

6.Oliy ta'limda Mutaxassislik fanlarni o'qitishning tashqi va ichki qonuniyatlari.

7.Tashqi qonuniyatlar - o'qitish natijalarining ijtimoiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va natijaviylikka yo'naltirilganligi.

8.Mutaxassislik fanlarni o'qitishning didaktik tamoyillari: ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi, tizimlilik, ishonchlilik, faollik, ko'rgazmalilik, individuallik

9.O'qitish mazmunini belgilash tamoyillari. o'qitish maqsadi va mazmunining birligi. o'qitish mazmunining o'zlashtirish darajasini ta'minlay olishi.

10.Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarni o'qitish shakllari: ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya, mustaqil ta'lim.

	11.Ma'ruza turlari: muammoli, kirish, axborotli, vizual, binar, sharhlovchi, ma'ruza-munozara, input-ma'ruza, on-line ma'ruzalar va ularni tashkil otish, o'tkazish metodikasi 12.Seminar turlari: muammoli, kirish, axborotli, vizual, binar, sharhlovchi, ma'ruza-munozara, input-ma'ruza, on-line ma'ruzalar va ularni tashkil etish, o'tkazish metodikasi. 13.Seminar-treninglar, intensiv-interfaol seminarlar, amaliy ishlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi. 14.Mustaqil ta'lim va laboratoriya mashg'ulotlarining turlari, virtual laboratoriyalar. 15.Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonida talabalar bilim, ko'nikma va malakalar tizimini baholashning o'ziga xosligi. 16.Mutaxassislik fanlarni o'qitishda axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. 17.Taqdimot, elektron darslik yaratish texnologiyasi. 18.Masofadan o'qitishni tashkil etish. 19.Muammoli, interfaol, o'yinli, tabaqalashtirilgan, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. 20.Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish metodikasi.
3.	V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar) Magistr bilishi kerak: • Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi fani va uning barcha bo'limlari: nazariy asoslari, barcha fanlar bilan o'zaro bog'liq, Mutaxassislik fanlarni o'qitishda innovatsion yondoshuv, Mutaxassislik fanlarni o'qitish tamoyillari, qonuniyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) • Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi kursini o'zlashtirgan talaba riy xujjatlar, turlari xaqida fenomenologik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi, yangi axborot texnologiyalarini qo'llab, olgan bilimlarini pedagogik va ilmiy faoliyatida qo'llay olish kabi bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma). • Mutaxassislik fanlarni o'qitishda taxlim texnologiyalari, elektron plakatlar, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo'llanmalar, virtual laboratoriyalar, internet ma'lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o'quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo'yicha ma'lumotlar jamlamasidan foydalaniladi. Mustaqil ta'lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni yechish, diskussiya, rolly o'yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan fanning o'qitilishi amalga oshiriladi va o'quvchilarni baholay olish to'g'risida malakalariga ega bo'lishi kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka)
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash;

	• amaliy mashg'ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • ijodiy ishlar yaratish
5.	VII. Kreditlarni olish uchun magistrlar: Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish.
6.	VIII. Asosiy adabiyotlar: 3. N.Erkaboyeva. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. Farg'ona. 2023. 4. O'.Q.Tolipov, D.I.Ro'ziyeva, Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. (barcha magistratura mutaxassisliklari uchun o'quv qo'llanma). –T.: 2019y. 5. Pedagogika vysshey shkoly. Uchebno-metodicheskiy kompleks Kazan' 2011. 6. Omonov Y, Xojaev, Madyarova S., Eshchonov E., Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –T.: iqtisod-moliya. 2009y. 7. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Darslik. Iqtisod-moliya, 2011. -420 b. IX. Qo'shimcha adabiyotlar 8. Mirziyoyev SHavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / SH.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b. 9. Mirziyoyev SHavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /SH.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b. 10. Mirziyoyev SHavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /SH.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b. 11. Mirziyoyev SHavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-Toshkent, 2021. -458 b. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

	12.O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70 -modda) 13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida " gi PF - 6108 - son farmoni. 14.Sovetova O.S. Osnovi sotsialnoy psixologii innovatsiy. – SPB.: Izdatelstvo S.Peterburgskogo universiteta, 2000. 15.Teshaboev T.Z. Oliy o‘quv yurtlarida innovatsion faoliyatni takomillashtirish yo‘llari. – T.: “Fan va texnologiya”, 2007. Axborot manbaalari: 16.http://www.edu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta Mutaxassislik ta’lim vazirligi sayti. 17.http://www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti. 18.http://www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali. 19.www.pedagog.uz 20.http://www.ziynet.uz/ 21.https://english.pku.edu.cn/curriculum/11304.html
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 30-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun mas’ullar va dastur mualliflar: 1. Usmonaliyev Ikromjon Murodjon o‘g‘li – “Pedagogika” kafedrasida dotsenti, p.f.b.f.d (PhD) 2. Ortiqova Nargiza Akramovna – QDU “Pedagogika” kafedrasida dotsenti, (PhD).
9.	Taqrizchilar: Z.Xolmatova – QDU “Pedagogika” kafedrasida professori, p.f.d (DSc) D.Xoliqova - FarDU Pedagogika kafedrasida dotsenti, PhD